



Application of the Flipped Learning Methodology in Korean Language Reading (읽기) Classes

Maftuna KAMAROVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

10 January 2025

Accepted 25 January 2025

Available online

25 February 2025

Keywords:

Korean language,
teaching methodology,
Flipped learning,
educational technologies,
competence,
innovative approach,
interactive teaching,
language learning.

ABSTRACT

This scientific study examines the use of the Flipped learning method to develop the reading competence of future Korean language teachers. It explores innovative approaches, effective organization of the learning process, and the significance of interactive methods in teaching Korean.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss2/S-pp352-357>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Flipped Learning metodikasining koreys tili o'qish (읽기) darslarida qo'llanilishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

koreys tili,
o'qitish metodikasi,
Flipped learning,
ta'lim texnologiyalari,
kompetensiya,
innovatsion yondashuv,
interaktiv o'qitish,
til o'rganish.

Ushbu ilmiy ishda bo'lajak koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirish uchun Flipped learning metodidan foydalanish masalasi yoritilgan. Innovatsion yondashuvlar, o'quv jarayonini samarali tashkil etish va koreys tilini o'rgatishda interaktiv usullarning ahamiyati tadqiq etilgan.

¹ PhD student, Assistant Lecture, Department of Korean Philology, Samarkand State Institute of Foreign Languages.
E-mail: mku198789@gmail.com

Применение методики Flipped Learning на занятиях по чтению (읽기) корейского языка

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

корейский язык,
методика преподавания,
Flipped learning,
образовательные
технологии,
компетенция,
инновационный подход,
интерактивное обучение,
изучение языка.

В данном научном исследовании рассматривается вопрос использования метода Flipped learning для развития читательской компетенции будущих преподавателей корейского языка. Исследуются инновационные подходы, эффективная организация учебного процесса и значение интерактивных методов в обучении корейскому языку.

KIRISH

So'nggi yillarda innovatsion ta'lim metodlari o'quv jarayonini interaktiv va samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Shu jumladan, Flipped Learning (거꾸로 학습) metodi chet tillarini, ayniqsa, koreys tilini o'qitishda o'quvchilarning mustaqil fikrlash va chuqur o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirish uchun samarali metodlardan biri hisoblanadi (Bergmann & Sams, 2012). An'anaviy ta'lim tizimida o'quvchilar dars davomida yangi material bilan tanishib, uy vazifasida uni mustahkamlashsa, Flipped Learning metodikasi esa bu jarayonni aksincha tashkil qiladi. Mazkur maqolada Flipped Learning metodining koreys tili o'qish (읽기) darslarida qo'llanishi, uning samaradorligi va amaliy tatbiq etish bosqichlari ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Flipped Learning (거꾸로 학습) – zamonaviy ta'lim jarayonida keng qo'llanilayotgan innovatsion metodlardan biri bo'lib, u konstruktivistik ta'lim nazariyasi (constructivist learning theory) tamoyillariga asoslanadi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, o'quvchilar bilimni tayyor shaklda qabul qilish o'rniga, uni mustaqil izlash, tahlil qilish va muhokama qilish orqali o'zlashtiradilar (Piaget, 1970; Vygotsky, 1978). An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi dars jarayonida asosiy ma'lumotlarni tushuntirib, uyga mustahkamlash uchun topshiriq beradi. Flipped Learning metodi esa bu jarayonni teskari (거꾸로) yo'nalishda tashkil qiladi: o'quvchilar yangi mavzu bo'yicha materiallarni darsdan oldin mustaqil o'rganadilar, dars davomida esa faol muhokama va amaliy mashg'ulotlar orqali bilimlarini mustahkamlaydilar (Bergmann & Sams, 2012). Bu metodika quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

1) Teskari ta'lim jarayoni (수업의 전환) – an'anaviy ta'lim tizimidan farqli ravishda, o'quvchilar darsga oldindan tayyorlanib kelishadi. Ya'ni, o'qituvchi yangi mavzuni dars davomida tushuntirish o'rniga, zarur materiallarni oldindan taqdim etadi. Bu video darslar, elektron taqdimotlar, interaktiv ilovalar yoki maqolalar ko'rinishida bo'lishi mumkin (Hamdan et al., 2013). Bunday yondashuv o'quvchilarning mavzuga oid dastlabki tushunchalarini shakllantirish, asosiy tushunchalar bilan tanishish va dars jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi.

2) O'quvchilarning mustaqilligi (자율적 학습) – Flipped Learning metodi o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. An'anaviy ta'limda asosiy ma'lumotni o'qituvchi yetkazib berar ekan, Flipped Learning metodida o'quvchilar mustaqil ravishda bilim olish jarayonini boshqaradilar. Bu jarayon davomida ular

o'zlariga qulay va mos tempda o'rganishlari, murakkab tushunchalarni bir necha bor qayta ko'rib chiqishlari va o'zlariga tushunarsiz bo'lgan jihatlarni dars davomida muhokama qilishlari mumkin (Bishop & Verleger, 2013). O'quvchilarning avtonom ta'lim olish qobiliyatlari rivojlanadi, bu esa ularning uzoq muddatli o'quv faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini oshiradi.

3) Interaktiv va muhokamaga asoslangan dars jarayoni (토론 및 협업 학습) – Flipped Learning metodida dars jarayoni an'anaviy ma'ruza shaklida emas, balki o'quvchilar ishtirokida faol muhokamalar, guruhli mashg'ulotlar va amaliy vazifalar orqali tashkil etiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Flipped Learning metodi bilan tashkil etilgan darslarda o'quvchilar o'z fikrlarini aniq bayon qilish, boshqa fikrlarni tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradilar (Hamdan et al., 2013). Ayniqsa, koreys tili kabi chet tillarini o'rganishda interaktiv muhokama va qo'shma faoliyat asosida o'quvchilar matn mazmunini chuqur anglash, matn bo'yicha fikr bildirish, matndagi asosiy g'oyalarni ajratish ko'nikmalarini shakllantirishlari mumkin.

NATIJALAR

Chet tillarini, xususan, koreys tilini o'qitishda Flipped Learning metodining o'rni beqiyos. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilar darsga tayyor holda kelishadi: ular matn bilan oldindan tanishib, asosiy g'oyalar, muhim so'zlar va grammatik jihatlarni mustaqil o'rganib chiqadilar. Natijada dars jarayonida oddiy o'qish emas, balki chuqur tahlil, mantiqiy xulosalar chiqarish va fikr almashish amalga oshiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Flipped Learning metodi orqali o'quvchilarning o'qish kompetensiyasi (읽기 능력) sezilarli darajada rivojlanadi (Kim, 2017). Xususan:

- **matn mazmunini chuqur tahlil qilish** (텍스트의 심층 분석) – o'quvchilar matnni faqat yodlash emas, balki uni tushunish, asosiy g'oyalarini ajratib olish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar;

- **kontekstual tushunish** (문맥적 이해) – matnni tushunishda talaffuz, grammatik struktura va semantik bog'liqliklar yanada aniqroq idrok qilinadi;

- **muhokama va fikr bildirish** (토론 및 의견 제시) – o'quvchilar matn asosida bahs-munozara yuritish, muhim fikrlarni ochiq bayon qilish va boshqalar bilan fikr almashish orqali interaktiv o'qish jarayonini shakllantiradilar.

Flipped Learning modeli o'quvchilarni passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ularning mustaqil o'rganish qobiliyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Koreys tilida o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda bu metodning afzalliklari shunchaki nazariy asoslarga emas, balki amaliy jihatdan ham yuqori natijalar berishiga asoslangan. Shu bois, Flipped Learning modelini koreys tili darslariga tatbiq etish o'quvchilarning bilim olish jarayonini yanada interaktiv, samarali va qiziqarli qiladi.

MUHOKAMA

Koreys tili o'qish (읽기) darslarida Flipped Learning metodining muvaffaqiyatli qo'llanishi uchun uch asosiy bosqichni ajratish mumkin: darsdan oldingi tayyorgarlik, dars jarayoni va darsdan keyingi mustahkamlash.

1) 수업 전 활동 (Darsdan oldingi tayyorgarlik bosqichi) – Flipped Learning metodikasining muhim poydevori bo'lib, o'quvchilarni yangi mavzuga tayyorlash va ularning bilishga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Darsga kirishdan avval o'quvchilarga mustaqil ravishda yangi matn va so'z boyligi bilan tanishish imkoniyati beriladi. O'qituvchi esa ularning bilim olish jarayonini to'g'ri yo'naltirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshiradi:

- *matn mavzusini tushuntirish (텍스트 주제 소개)* - o'quvchilarga o'qiladigan matnning asosiy mazmuni haqida umumiy tushuncha beriladi. Bu bosqichda o'quvchilarning avvalgi bilimlarini faollashtirishga e'tibor qaratiladi (schema activation, Carrell & Eisterhold, 1983).

- *o'quv materiallari taqdim etish (학습 자료 제공)* - o'quvchilar oldindan tayyorlangan video darsliklar (동영상 강의), audio fayllar yoki slayd taqdimotlar orqali mavzu bilan tanishadilar.

- *so'z boyligini oshirish (어휘 학습)* - matnda uchraydigan muhim so'zlarni o'rgatish uchun Quizlet, Anki kabi onlayn platformalar yoki Google Forms testlaridan yoki o'qituvchi tomonidan tuzilgan foydalanish mumkin.

- *oldindan savollar berish (사전 질문 제공)* - o'quvchilarga matnni o'qish jarayonida asosiy e'tibor qaratishlari lozim bo'lgan savollar beriladi. Bu bosqich o'quvchilarning tanqidiy tafakkurini faollashtirib, ularga mavzuni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

2) 수업 중 활동 (Dars jarayoni) - o'quvchilarning mustaqil o'rganib kelgan bilimlarini amalda qo'llashga, fikrlash va muhokama qilish orqali chuqurlashtirishga qaratilgan. O'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan interaktiv mashg'ulotlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi:

- *matnni o'qish va tahlil qilish (텍스트 읽기 및 분석)* - o'quvchilar matnni juftlik yoki guruh bo'lib o'qib, tushunishga harakat qiladilar, savollar va muhokamalar orqali asosiy g'oyalarni ajratib olishadi.

- *muhokama va savol-javob (토론 및 질문 답변)* - o'quvchilar matn mazmuni bo'yicha fikr almashib, asosiy xulosalarni chiqaradilar, bunda har bir o'quvchi o'z qarashlarini ifoda etishi muhim.

- *grafik tashkilotchilar bilan ishlash (마인드맵 및 그래픽 오거나이저 활용)* - o'quvchilarning tushunish jarayonini yaxshilash uchun asosiy fikrlar mind-map yoki grafik sxemalar yordamida tasvirlanadi.

- *rollar o'ynash va dramatizatsiya (롤플레이 및 상황극)* - matn mazmuniga mos holatlarni jonlantirish orqali o'quvchilarning so'z boyligi va til ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu bosqich o'quvchilarni nafaqat matnni tushunishga, balki o'qish jarayonida o'z fikrlarini shakllantirish va aniq ifoda qilishga ham o'rgatadi.

3) 수업 후 활동 (Darsdan keyingi mustahkamlash bosqichi) - darsdan keyin o'quvchilar bilimlarini chuqurlashtirish va yanada mustahkamlash uchun mustaqil topshiriqlar bajaradigan bosqichdir. Bu bosqichda ular o'z o'rganish jarayonlarini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- *matn bo'yicha yozma topshiriqlar (요약문 작성 및 감상문 쓰기)* - o'quvchilar matn mazmunini tahlil qilib, o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydilar. Bu ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.

- *qo'shimcha o'qish mashg'ulotlari (추가 읽기 활동)* - o'quvchilar matnga o'xshash boshqa maqolalar, hikoyalar yoki yangiliklarni o'qish orqali mavzuni yanada chuqurroq o'zlashtiradilar.

- *onlayn baholash va o'zini tahlil qilish (온라인 평가 및 자기 반성)* - Google Forms testlari yoki reflektiv so'rovnomalar orqali o'quvchilar o'z natijalarini tahlil qilib, qaysi jihatlar ustida ishlash kerakligini aniqlaydilar.

XULOSA

Flipped Learning metodi koreys tili o'qish darslarida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lib, u o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini oshirishga, dars jarayonini interaktiv va qiziqarli tashkil qilishga xizmat qiladi. Ushbu metod an'anaviy ta'limdan farqli ravishda o'quvchilarni passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida bilim olishga undaydi. Flipped Learning orqali o'quvchilar darsdan oldin o'quv materiallari bilan tanishib, ularni mustaqil o'rganishadi, dars jarayonida esa chuqurlashtirilgan tahlil, muhokama va amaliy mashg'ulotlar orqali o'z bilimlarini mustahkamlashadi. Bu esa nafaqat ularning o'qish kompetensiyalarini rivojlantirishga, balki tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Shuningdek, Flipped Learning metodidan foydalanish o'qituvchilarga dars jarayonini individual va differensial yondashuv asosida tashkil etish imkonini beradi. O'quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab, ularga mos keluvchi topshiriqlar berish, o'quv jarayonini yanada moslashtirish mumkin bo'ladi. Bunday ta'lim muhiti, ayniqsa, koreys tilini chet tili sifatida o'rganayotgan talabalar uchun muhim bo'lib, ular yangi so'zlarni tushunish, matn mazmunini anglash va fikrni ifodalash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Umuman olganda, Flipped Learning texnologiyasining koreys tili o'qish darslarida qo'llanilishi o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning faolligini rag'batlantirish va ularning til o'rganish kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu metodning samaradorligini yanada chuqurroq o'rganish va uning koreys tilini o'rgatishdagi boshqa jihatlariga ta'sirini tadqiq etish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. International Society for Technology in Education.
2. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. (2013). The Flipped Classroom: A Survey of the Research. 120th ASEE Annual Conference & Exposition Proceedings.
3. Hamdan, N., McKnight, P., McKnight, K., & Arfstrom, K. M. (2013). The Flipped Learning Model: A Review of the Literature. Flipped Learning Network.
4. Han, S., & Choi, H. (2020). Flipped Learning as a New Paradigm in Foreign Language Education: Case Studies from Korea. Journal of Educational Technology & Society, 23(3), 56-68.
5. Kamarova, M. U. (2024). Koreys tili o'qituvchilarining o'qish kompetensiyasini rivojlantirishda Flipped learning texnologiyasining o'rni // So'z san'ati xalqaro jurnali, 7-jild, 5-son. – 99-103-betlar. ISSN 2181-9297.
6. Kamarova, M. U. (2024). Использование метода «перевернутого обучения» в процессе начального обучения корейскому языку // “Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar” xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari, 16-oktabr. – 133-136-betlar.
7. Kim, H., & Park, Y. (2017). Flipped Learning in Korean Language Education: Current Trends and Future Directions. Korean Language Education Research, 32(2), 145-165.
8. Lage, M. J., Platt, G. J., & Treglia, M. (2000). Inverting the Classroom: A Gateway to Creating an Inclusive Learning Environment. The Journal of Economic Education, 31(1), 30-43.

9. Schmidt, S. M., & Ralph, D. L. (2016). The Flipped Classroom: A Twist on Teaching. *Contemporary Issues in Education Research*, 9(1), 1-6.

10. Strayer, J. F. (2012). How Learning in an Inverted Classroom Influences Cooperation, Innovation and Task Orientation. *Learning Environments Research*, 15(2), 171-193.